



## QADIMGI TURKIY TILDA QO'LLANILGAN SO'Z YASOVCHI AFFIKSLAR VA ULARNING OMONIMIYASI (TO'NYUQUQ BITIKTOSHI BO'YICHA)

**Boboqulova Mohina Norsafar qizi**

mohinaboboqulova689@gmail.com

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat  
universiteti filologiya fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13841736>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20- Sentabr 2024 yil

Ma'qullandi: 23- Sentabr 2024 yil

Nashr qilindi: 26- Sentabr 2024 yil

### KEY WORDS

*affiksoid, morfemik sath, prefiks,  
so'z yasalishi, omonim.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqola qadimgi turkiy tilda so'zlarning yasalish jarayonida ishlatilgan qo'shimchalarning turlari va ulaning ko'p funksiyali shakllarining omonimlik xususiyatini To'nyuquq bitiktoshi matni asosida o'rganishlarni yoritadi.*

Tilning hozirgi ko'rinishi ma'lum bir taraqqiyot bosqichlari asosida shakllangan bo'lib, uning dastlabki shakli uchun xizmat qilgan grammatik qonuniyatlari, lug'at boyligi va o'zga tillarning ta'sir darajasi ham turli farqlanishlarga ega. Ushbu jarayon shu tilda so'zlashuvchi jamiyatning ijtimoiy va siyosiy hayot tarzi rivoji bilan birgalikda davom etgan. Qadimgi turkiy xalqlarda davlatchilik asoslarining shakllanishi, iqtisodiy hamkorlik va diplomatik aloqalarning kengayishi qadimgi turkiy tilning turli sathlarida ham o'z ifodasini topgan. O'zbek adabiy tilining dastlabki namunalari bo'lgan obidalar, shu jumladan, To'nyuquq bitiktoshi ham qadimgi turkiy tilning o'ziga xos xususiyatlarini o'zida jamlagani bilan ahamiyatlidir. Bu bitiktosh matnida ishlatilgan so'z yasovchi affiksalarini o'rganish barobarida o'sha davrda adabiy tili sifatida baholangan qadimgi turkiy til grammatikasidagi so'z yasalishi tarzi, asos va qo'shimchalar munosabati, so'z yasovchi qo'shimchalarning turlari va shaklldoshlik xususiyatlarining hozirgi o'zbek adabiy tilidagi holatlari bilan qiyoslagan holda o'xshashligi yoki farqlanishini ko'rish mumkin.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

So'z yasash hozirgi o'zbek adabiy tilida bo'lgani kabi, asosan, morfologik (affiksatsiya) va sintaktik (kompozitsiya) usul bilan amalga oshiriladi [2,109].

Sintaktik usul ikki yo undan ortiq so'zlarni qo'shish orqali hosil qilinadi: apatarxan (bosh qo'mondon) (To'nyuquq, 35), yär sub (yer-suv) (To'nyuquq, 38), qiz quduz (qiz-juvon) (To'nyuquq, 48) va h.k.

Hozirgacha eng mahsuldor so'z yasash usuli morfologik usul hisoblanadi va u so'zlarga so'z yasovchi qo'shimchalarning qo'shilishi bilan hosil qilinadi: körüg (josus, ayg'oqchi) (To'nyuquq, 8), sülälim (qo'shin tortaylik) (To'nyuquq, 20), čölgı (cho'llik) (To'nyuquq, 23), örtča (o'tday, olov kabi) (To'nyuquq, 40) va boshqalar.

Hosil bo'lgan yasama so'zning ifodalaydigan ma'nosi va qaysi so'z turkumiga oidligi uni yasashda ishtirok etgan asosining turkumi va yasovchi affiksning turiga bog'liq. Ammo hozirgi kunda ayrim so'zlar asos va yasovchi

qismlarga ajralmaydi (qishloq, belbogʻ) yoki qadimgi turkiy tilda boʻlgan vazifasini va qisman shaklini ham (imlo, oʻtlanmoq) oʻzgartirgan. Shuning uchun ham bu oʻzgarishlarga oydinlik kiritish uchun tilning tarixiy grammatikasini, xususan, qadimgi turkiy tildagi soʻz yasash tartibi va shakllarini oʻrganib chiqish tavsiya qilinadi. Yodgorliklar tilidagi soʻz yasovchi qoʻshimchalar har bir turkum uchun alohida va ular omonimlik xususiyatiga ham ega boʻlishi mumkin. Qadimgi turkiy tilda soʻz yasovchi affikslar vazifasiga koʻra farqlanishidan tashqari ularning asos bilan munosabatiga koʻra ham ayrim alohidaliklarga ega. Qadimgi turkiy til singarmonizm qoidalariga qatʼiy amal qiladigan til boʻlgani uchun bir turdagi affikslarning ham turli xil shakllari mavjud boʻlgan. Bu asos tarkibidagi unilarning lab uygʻunligi va undoshlarning jarangli yoki jarangsizlanishiga bogʻliq tarzda yuz beradi [2,110].

### NATIJALAR

Qadimgi turkiy til ham hozirgi oʻzbek tili kabi agglyutinativ tillar sirasiga kiradi, yaʼni qadimgi turkiy tildagi yasama soʻzlar ham flektiv tillardan farqli ravishda asosning shakli oʻzgarimasdan unga maxsus affikslarning qoʻshilishidan hosil boʻladi. Quyidagi jadvalda bir qancha namularni koʻrish mumkin:

T/r	Soʻz va uning maʼnosi	Asos va uning maʼnosi	Soʻz yasovchi affiks va uning vazifasi	Manba
1	bilig (Bilim (DTTC, 99))	bil (bilmoq (DTTC, 98))	-ig (harakat bajaruvchi va shu harakat bilan bogʻliq predmeti yasaydi)	T, 6
2	uçuq (Yirtqich qush (DTTC, 604))	Uč (1-maʼnosi: qanot; 2-maʼnosi: uchmoq (DTTC, 603))	-uq (harakat natijasida paydo boʻlgan predmetni yasaydi)	T, 8
3	körüg (Aygʻoqchi (DTTC, 318))	Kör (koʻrmoq (DTTC, 317))	-ug (harakat bajaruvchi va shu harakat bilan bogʻliq predmeti yasaydi)	T, 8
4	ayğuči (Maslahatchi (DTTC, 28))	ay (1-maʼnosi: aytmoq, tushuntirmoq; 2-maʼnosi: koʻrsatmoq, yoʻnaltirish (DTTC, 25))	1) -ğu (harakat quroli, harakat asosida yuzaga kelgan predmetni yasaydi); 2) -či (kasb yoki biror yumush egasini bildiradigan ot yasaydi)	T, 10
5	irklig (Yigʻin)	irk (toʻplamoq, yigʻmoq (DTTC, 212))	-lig (mavhumlik, makon va tanovar maʼnolarini anglatadi)	T, 13
6	ötünč (Iltimos, yalinish, umid (DTTC, 393))	ötün (soʻramoq, iltimos qilmoq (DTTC, 393))	-č (majhul feʼldan kayfiyat yoki mavhum ot yasaydi)	T, 15

7	yärçi (Yo'l boshlovchi (ДТС, 257))	yär (yer, o'rin, yurt (ДТС, 257))	-çi (kasb yoki biror yumush egasini bildiradigan ot yasaydi)	T, 23
8	qar(a)ğu (Qo'shinning ilg'or qismida turib oldindagi pistirma va tuzoqlarni aniqlovchi shaxs, qorovul (ДТС, 424))	qara (qaramoq, ko'rmoq (ДТС, 424))	-ğu (harakat quroli, harakat asosida yuzaga kelgan predmetni yasaydi)	T, 34
9	yağiči (Jangovor, jangchi (ДТС, 224))	yaği (dushman, yov (ДТС, 224))	-çi (kasb yoki biror yumush egasini bildiradigan ot yasaydi)	T, 50
10	qağanliğ (Xoqonlik, hukmdorlik (ДТС, 406))	qağan (xoqon, hukmdor (ДТС, 406))	-liğ (mavhumlik, makon va tanovar ma'nolarini anglatadi)	T, 56

Jadvalda ko'rinib turganidek, siz yasovchi qo'shimchalar va ularning fonetik variantlari ham o'zining funksiyasiga ko'ra ma'lum bir ma'noviy guruhga tegishli so'zlarni yasayapti. Jadvaldagi so'z yasovchi affikslar hozirgi o'zbek tilidan ko'plab farqli jihatlari ham ko'zga tashlanadi. Bu holatlarga G'. Abdurahmonov va A. Rustamovlar: "1. Hozirgi zamon morfemalari qadimgi turkiy tildagiga nisbatan miqdoran ko'p va mazmunan boy.

2. Hozirgi o'zbek tilida yo'q bo'lgan yoki alohida element sifatida o'qilmaydigan morfemalari ham bor.

3. So'z va forma yasovchi chet til morfemalari yo'q.

4. Murakkab morfemalari juda kam", - deya izoh berishadi [1, 25].

## MUHOKAMA

Qadimgi turkiy tildagi so'z yasovchi affikslar ham omonimlik munosabatiga kirishishi mumkin. Lekin omonim affikslarni ularning singarmonizmga uchragan variantlari bilan chalkashtirib yubormaslik lozim. Ularning omonimlik xususiyatlari uchun vazifaviy jihatlarni asos qilib olish kerak. Chunki ushbu variantlar "sof morfologik farq bo'lmay, fonetik farq" hisoblanadi [1, 25]. Misol uchun, -liğ affiksi morfologik sathda mavhum ot yasovchi hisoblanadi. Uning -liq, -lik, -lūq, -luk, kabi fonetik variantlari mavjud. Ammo sifat yasash uchun xizmat qiladigan -liğ, -lig, -lūğ, -lug kabi affikslar yuqorida sanalgan variantlar bilan vazifasiga ko'ra farqlanib, shakldoshlik xususiyatini o'zida namoyon qiladi: qağanliğ (T, 56) - atliğ (T, 4).

## XULOSA

Qadimgi turkiy tildagi yasama so'zlar va ularni yasovchi affikslar hozirgi kunda biz ishlatadigan ko'rinishlaridan bir muncha farqlarga ega bo'lishi mumkin. Lekin ularning hozirgi kunda iste'moldan chiqib ketgan deb hisoblanadigan shakllari o'zbek tilining turli sheva vakillari tilida to'liq saqlanib qolgan. Yodgorlik tili morfologiyasidagi affikslar

omonimlik xususiyatlariga ham ega va bu ularning vazifaviy jihati bilan farqlanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abdurahmonov G., Rustamov A. 1982. Qadimgi turkiy til, 25-30. - Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti.
2. Abdurahmonov G., Shukurov Sh., Mahmudov Q. 2008. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi, 109-110. - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti;
3. Rahmonov N., Sodiqov Q. 2009. O'zbek tili tarixi, 109. - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.
4. Древнетюркские словарь. 1969. Ленинград: Наука.

